

---

# MAHALLA VA HARBIY QISM HAMKORLIGIDA NURONIY OTAXONLAR HOLIDAN XABAR OLINDI



## **Mahalla va harbiy qism hamkorligida nuroniy otaxonlar holidan xabar olindi**

Armiya va xalq birdamligi tashkil etilayotgan turli tadbirlar misolida yana bir karra o'z isbotini topmoqda. Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlab o'tkazilayotgan tadbirlar ushbu mushtaraklikni yanada mustahkamlamoqda.

Sohibkor mahalla fuqarolar yig'ini va mahallada joylashgan harbiy qism vakillari hamkorligida tadbirlar tashkil etildi. Mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan nuroniylar holidan xabar olib, ularga bayram sovg'alari ulashilib, tashkilotchilar keksa yoshdagi fuqarolar duoi poklarini olishga ham muvaffaq bo'ldilar.

Sohibkor mahalla fuqarolar yig'ini "Sabohat" ko'chasida yashovchi, front ortida mehnat qilgan 94-yoshli tabarruk otaxon Umarali Boboyev xonadonida bo'lgan mehmonlar otaxon bilan samimiy muloqotda bo'ldilar. Otaxonga bayram va esdalik sovg'alari taqdim etildi.

Shuningdek, bayram munosabati bilan Tul chegara nazorat-o'tkazish punkti harbiy xizmatchilariga ham mahalla tomonidan tashkil etilgan esdalik sovg'alar va tashakkurnomalar topshirildi. O'rtada shakllangan mustahkam hamkorlik samarasi o'laroq mahallada qariyb har bir tadbir harbiylar ishtirokida tashkil etiladi.

### **So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**



#### **[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-01-13 15:59:20